



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 4 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent



<https://insurance.tsue.uz>

№	MUNDARIJA	Page
1.	ФИНАНСОВАЯ ОТЧЕТНОСТЬ СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ УЗБЕКИСТАНА: АНАЛИЗ ПРОБЕЛОВ РЕГУЛИРОВАНИЯ <i>Мусаев Азиз Анварович</i>	4
2.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA RISKLARNI BOSHQARISHNING MOLIYAVIY MEKANIZMLARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR <i>Abdullayev Erkinjon A'zamovich</i>	6
3.	RIVOJLANGAN BOZORLAR VA O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA SUG'URTA TASHKILOTINING TO'LOV QOBILIYATINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Xalikov Umid Raxmatullayevich</i>	9
4.	AKSIYADORLIK JAMIYATLARIGA INVESTORLARNI JALB ETISHDA FOND BOZORIDAGI AKSIYALARINI NARXI TAHLILI <i>Ibragimov G'anijon G'ayratovich</i>	12
5.	MONETIZING SOCIAL MEDIA: OLS ESTIMATES OF CONTENT INTENSITY, ENGAGEMENT, AND ADVERTISING ON SALES <i>Majidov Abdulaziz Abdurahimovich</i>	16
6.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI YANADA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI <i>Mavrulova Nilufar Abduxalilovna</i>	20
7.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TAHLILI <i>Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich</i>	24
8.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI TAHLILI <i>Abdurazaqov Jasur Abdunasimovich</i>	27
9.	BANK SEKTORIDA RISKLARNI BOSHQARISH: XALQARO TAJRIBA VA IQTISODIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI <i>Foziljonova Niholaxon Fayoz qizi</i>	30

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



BANK SEKTORIDA RISKLARNI BOSHQARISH: XALQARO TAJRIBA VA IQTISODIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Foziljonova Niholaxon Fayoz qizi

Namangan davlat universiteti talabasi

e-mail: niholakhon06@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-9264-6724>

Annotatsiya: Mazkur maqolada bank sektorida risklarni boshqarishning xalqaro tajribasi va iqtisodiy islohotlar sharoitida uni takomillashtirish yo'llari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Bazel I, II va III standartlari, Yevropa Markaziy Banki ko'rsatmalari hamda CAMELS, ORAP, SCOR, SEER kabi risk baholash tizimlari o'rganildi. Statistik modellar, stress-testlar va guruh tahlili orqali banklarning moliyaviy barqarorligi baholandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, risk madaniyatini rivojlantirish, IT-infratuzilmani modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish bank tizimining barqarorligini oshirishda muhim omillardir. Maqolada strategik tavsiyalar sifatida Bazel III standartlarini milliy qonunchilikka to'liq joriy etish, kiberxavfsizlikni mustahkamlash va transchegaraviy risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish taklif etiladi.

Kalit so'zlar: bank risklari, risk-menejment, Bazel III, CAMELS, stress-test, iqtisodiy islohotlar, kiberxavfsizlik, raqamlashtirish.

Abstract: This article analyzes the international experience of banking risk management and explores ways to improve it under the conditions of economic reforms. The study examines Basel I, II, and III standards, European Central Bank guidelines, and risk assessment systems such as CAMELS, ORAP, SCOR, and SEER. Using statistical modeling, stress testing, and peer group analysis, the financial stability of banks was assessed. The findings reveal that developing a risk culture, modernizing IT infrastructure, adopting digital technologies, and harmonizing international standards are key drivers for strengthening the resilience of the banking system. The paper recommends full implementation of Basel III standards into national legislation, enhancement of cybersecurity, and improvement of cross-border risk management mechanisms.

Keywords: banking risks, risk management, Basel III, CAMELS, stress testing, economic reforms, cybersecurity, digitalization.

Абстрактный: В статье рассматривается международный опыт управления банковскими рисками и пути его совершенствования в условиях экономических реформ. В рамках исследования проанализированы стандарты Базель I, II и III, рекомендации Европейского центрального банка, а также системы оценки рисков CAMELS, ORAP, SCOR и SEER. С использованием статистического моделирования, стресс-тестирования и группового анализа оценена финансовая устойчивость банков. Результаты показали, что развитие культуры управления рисками, модернизация IT-инфраструктуры, внедрение цифровых технологий и гармонизация международных стандартов являются ключевыми факторами повышения стабильности банковской системы. В качестве стратегических рекомендаций предлагается полная имплементация стандартов Базель III в национальное законодательство, усиление кибербезопасности и развитие механизмов управления трансграничными рисками.

Ключевые слова: банковские риски, управление рисками, Базель III, CAMELS, стресс-тест, экономические реформы, кибербезопасность, цифровизация.

Kirish (Введение /Introduction)

Bozor iqtisodiyotining jadal rivojlanishi, moliya bozorlarining globallashuvi va murakkablashib borishi sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim vazifalaridan biridir. Moliyaviy oqimlarning tezkorligi va kapital bozorlarining o'zaro bog'liqligi sababli, kichik miqyosdagi tebranishlar ham tizim darajasidagi muammolarga aylanib, makroiqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. So'nggi yillarda kuzatilgan global moliyaviy inqirozlar, pandemiya oqibatidagi iqtisodiy cheklovlar hamda geosiyosiy keskinliklar markaziy banklar va nazorat organlarini risklarni boshqarishning takomillashtirilgan mexanizmlarini ishlab chiqishga undadi [1].

Bank risklarini boshqarish jarayoni endilikda nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlash vositasi, balki uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi strategik omilga aylanmoqda. Samarali risk-menejment kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish, investitsion muhitni yaxshilash va moliya tizimiga bo'lgan ishonchni oshirish orqali iqtisodiy faollikni kuchaytiradi [2]. Shu nuqtai nazardan, xalqaro standartlarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish bank sektorining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar thili (Обзор литературы / Literature review)

Jahonda bank sektorida risklarni boshqarish masalalari va uning nazariy-amaliy jihatlarini keng o'rganilgan. Xususan, Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan Bazel I, II va III standartlari risk-menejmentning asosiy tayanchi sifatida e'tirof etiladi. BIS tadqiqotida mazkur standartlarning kapital yetarliligi, likvidlik talablari va kontratsiklik kapital buferlari orqali bank tizimining inqirozlarga chidamliligini oshirishi ta'kidlangan. Shu bilan birga, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda Bazel III talablarini to'liq joriy etishdagi qiyinchiliklar milliy qonunchilikni moslashtirish zaruriyatini yuzaga keltirishi qayd etilgan [1][3][5].

Risklarni baholash metodologiyalarida CAMELS, ORAP, SCOR va SEER kabi reyting tizimlari muhim o'rin tutadi. Shevchenko (2009) tomonidan taklif etilgan Loss Distribution Approach (LDA) operatsion risklarni miqdoriy baholashda samarali usul sifatida qo'llaniladi, biroq u sifat omillarini yetarlicha hisobga olmasligi qayd etiladi [4]. Wang va Ziegel stress-test va ssenariy asosida risk baholash yondashuvlarining afzalliklarini ko'rsatib, banklarning tizimiy risklarga sezgiriligini aniqlashda ushbu usullarning dolzarbligini ta'kidlaydilar [2].

Yevropa Ittifoqi va AQSH tajribasi ham o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Yevropa Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan nazorat ko'rsatmalari banklarning makroprudensial barqarorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ular muntazam ravishda qayta ko'rib

chiqiladi va yangilanadi. AQSHdagi Dodd-Frank Act doirasidagi stress-test tablari esa bank tizimida moliyaviy zarbalarga tayyorgarlikni oshirishda muhim vosita sifatida baholanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Методы исследования /Methodology)

Tadqiqotni bajarish jarayonida tizimli tahlil va yondashuv, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va umumlashtirish, ekspert baholash va prognozlashtirish, shuningdek, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Mazkur tadqiqot doirasida xalqaro bank nazorati tizimlari va risklarni baholash metodologiyalari, xususan Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan Bazel I, II va III standartlari hamda Yevropa Markaziy Banki ko'rsatmalari tahlil qilindi. Bank risklarini baholashda qo'llaniladigan CAMELS, ORAP, SCOR va SEER kabi reyting tizimlarining amaliy ahamiyati o'rganildi. Statistik modellash, stress-testlar va guruh tahlili usullari yordamida banklarning moliyaviy barqarorligi va risklarga sezgirligi baholandi.

Bundan tashqari, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya, Shveysariya va Rossiya tajribasi o'zaro solishtirilib, bank nazorati mexanizmlarining samaradorligi baholandi. Miqdoriy yondashuvlar doirasida risk ostidagi qiymat (VaR), kutilayotgan kamomad (ES) va regressiya tahlili kabi usullar qo'llanildi. Sifat yondashuvlari esa ekspert baholari va mutaxassis fikrlarini o'rganish orqali amalga oshirildi. Ushbu usullar kompleks qo'llanilib, bank risklarini har tomonlama baholash va chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты /Analysis and results)

Tahlil natijalari xalqaro tajribada bank risklarini boshqarish bo'yicha bir nechta asosiy tendensiyalar va ustuvor yo'nalishlar mavjudligini ko'rsatdi.

Niderlandiya va Italiya kabi mamlakatlarda bank nazorati markaziy banklar zimmasiga yuklangan bo'lib, bu yondashuv tizimning barqarorligini oshiradi va qaror qabul qilishda tezkorlikni ta'minlaydi. Markazlashtirilgan nazorat orqali banklar faoliyati yagona standartlarga muvofiq baholanadi, moliyaviy oqimlarning shaffofligi oshadi hamda tizim bo'ylab risklarning bir markazdan boshqarilishi mumkin bo'ladi. Bu esa moliyaviy inqirozlar davrida muvofiqlashtirilgan choralar ko'rish imkonini beradi va makroiqtisodiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlaydi [3].

Buyuk Britaniya, Fransiya va Niderlandiyada audit kompaniyalari banklar faoliyatining majburiy nazorat elementiga aylangan. Bu kompaniyalar nafaqat moliyaviy hisobotlarni tekshiradi, balki banklarning to'lovga layoqatsizlik holatlari haqida nazorat organlariga xabar berish majburiyatiga ega. Mazkur tizim muammolarni erta aniqlash, bank sektorida shaffoflikni ta'minlash va omonatchilar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Auditorlar va reguliyatorlar o'rtasidagi muntazam axborot almashinuvi risklarni boshqarishda sinergetik samarani ta'minlaydi [4].

SCOR (Statistical CAMELS Off-site Rating) va SEER (Examination Rating Evaluation) kabi tizimlar banklarning moliyaviy ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilish orqali ularning holatidagi yomonlashish tendensiyalarini 4-6 oy oldin aniqlash imkonini beradi. Bu yondashuv nazorat organlariga proaktiv chora-tadbirlar ko'rish va potensial bankrotlik xavfini kamaytirishga sharoit yaratadi. Bunday tizimlar reyting baholari, moliyaviy hisobotlar va statistik modellarni integratsiyalash orqali yanada aniq prognozlar taqdim etadi, bu esa nazorat organlarining resurslarni to'g'ri taqsimlashiga yordam beradi [2].

Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan Bazel I, II va III standartlari bank kapitalining yetarilishini ta'minlash, likvidlikni oshirish va tizimiy risklarni kamaytirishga qaratilgan kompleks mexanizmlarni taklif etadi. Bazel III doirasida kapital talablarining oshirilishi, "kapitalni saqlash buferi" va "kontrtsiklik kapital buferi" kabi vositalarning joriy etilishi banklarning inqirozlarga qarshi turish qobiliyatini sezilarli darajada mustahkamladi [5]. Ushbu choralar moliyaviy yo'qotishlarni qoplash imkoniyatini kengaytirib, tizim bo'ylab "domino effekti" xavfini kamaytiradi.

Raqamli texnologiyalar bank risklarini boshqarishda muhim omilga aylanmoqda. Masofaviy nazorat tizimlari, real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beradigan IT-platformalar va big data tahlili bank faoliyatidagi zaifliklarni tezroq aniqlashga yordam bermog'ga. Bu jarayon nafaqat nazorat organlari uchun, balki tijorat banklari uchun ham strategik

ustunlik yaratadi, chunki ular risklarni erta aniqlab, tezkor qarorlar qabul qila oladi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, samarali risk-menejment tizimlari bank sektorining moliyaviy mustahkamligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xalqaro tajribalar shuni tasdiqlaydiki, risklarni baholash va boshqarish tizimlarining raqamlashtirilishi, nazorat organlari va auditorlik kompaniyalari o'rtasidagi uzluksiz hamkorlik, shuningdek, muntazam stress-testlarning qo'llanilishi moliya tizimining shaffofligi va chidamliligini sezilarli darajada oshiradi. Bu jarayon banklarning potentsial inqiroz holatlariga tayyorligini kuchaytiradi va kreditorlar hamda omonatchilar manfaatlarini yanada ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ular risk-menejmentning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Milliy qonunchilikdagi tafvutlar Bazel III talablarining barcha mamlakatlarda bir xil darajada qo'llanilishiga to'sqinlik qiladi va transchegaraviy bank faoliyatini murakkablashtiradi. Statistik modellar esa sifat omillarini – boshqaruv sifati, inson omili va ichki nazorat tizimlari samaradorligini yetarlicha hisobga olmaydi. Bundan tashqari, siyosiy, geosiyosiy va kiberxavfsizlik risklari banklarning barqarorligiga bevosita tahdid solmoqda. Shu sababli, bank tizimida strategik risk-menejment yondashuvlarini rivojlantirish, IT-infratuzilmani modernizatsiya qilish, shuningdek risk madaniyatini mustahkamlash dolzarb masalalar qatoriga kiradi.

1-jadval
Bank tizimida risk-menejmentni takomillashtirish bo'yicha strategik tavsiyalar

Yo'nalish	Tavsiya etiladigan choralar	Kutilayotgan natijalar
Risk madaniyatini rivojlantirish	Xodimlar uchun muntazam treninglar, risklarni ochiq muhokama qilishga sharoit yaratish	Risklarni tushunish va ularni boshqarish bo'yicha umumiy savodxonlik oshadi
IT-infratuzilmani modernizatsiya	Real vaqt monitoring platformalari, big data va AI asosidagi risk tahlil tizimlarini joriy etish	Risklarni erta aniqlash va tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyati kengayadi
Stress-testlash tizimi	Stress-testlar chastotasini oshirish, turli inqiroz stsensariylarini modellashtirish	Banklarning moliyaviy zarbalarga chidamliligi kuchayadi
Xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish	Bazel III talablarini milliy qonunchilikka to'liq integratsiya qilish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish	Transchegaraviy bank faoliyatida yagona standart va raqobat sharoitini ta'minlash
Kiberxavfsizlikni kuchaytirish	IT-audit, ma'lumotlarni himoyalash protokollari va xodimlar uchun kiberxavfsizlik bo'yicha treninglar o'tkazish	Ma'lumotlar yaxlitligini saqlash va kiberxavflarni kamaytirish

Ushbu jadval bank tizimida risk-menejmentni takomillashtirishning kompleks yondashuvini ifodalaydi. Birinchi navbatda, risk madaniyatini rivojlantirish xodimlarning riskka nisbatan ongli yondashuvini kuchaytirib, ularning qaror qabul qilishdagi xatoliklarini kamaytirishga xizmat qiladi. Risk savodxonligi oshishi natijasida banklar proaktiv boshqaruv usullarini joriy etib, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni erta bosqichda aniqlay oladilar.

IT-infratuzilmani modernizatsiya qilish orqali banklar real vaqt rejimida risklarni kuzatish imkoniyatiga ega bo'lib, tezkor qarorlar qabul qilish va moliyaviy yo'qotishlarning oldini olish imkoniyati kengayadi.

Shu bilan birga, stress-testlash tizimini takomillashtirish banklarning turli inqiroz stsenariylariga tayyorligini oshiradi va ularning moliyaviy zarbalarga chidamliligini mustahkamlaydi.

Xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish esa global moliya bozorida teng raqobat sharoitini yaratadi va transchegaraviy bank faoliyatining shaffofligini oshiradi. Nihoyat, kiberxavfsizlikni kuchaytirish zamonaviy raqamli xatarlarni kamaytirish va mijoz ma'lumotlarini ishonchli himoya qilish imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida kreditorlarning garov bilan ta'minlangan talablarini qanoatlantirish tizimini yanada takomillashtirish bank tizimidagi risklarni kamaytirish va kreditlash bozorini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Xalqaro me'yorlar (UNCITRAL Model Law on Secured Transactions, World Bank ICR Principles, EBRD baholashlari)dan kelib chiqib, quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi [6]:

Yagona ta'minlangan bitimlar konsepsiyasini joriy etish: garovning barcha shakllarini yagona huquqiy asosda tartibga solish, ko'char/ko'chmas mulk, hosil, kelgusi talablar va intellektual mulk huquqlarini garovga qo'yish imkoniyatini kengaytirish.

Markazlashgan elektron garov reyestrini yaratish: 24/7 rejimda ishlaydigan, real vaqt yangilanish va qidiruv imkoniyatiga ega, kadastr, transport reyestri va ijro tizimi bilan integratsiyalashgan.

Ustuvorlik qoidalarini "birinchi ro'yxat – birinchi huquq" tamoyili asosida qat'iy belgilash, PMSI (purchase-money security interest) uchun cheklangan super-ustuvorlik berish.

Sudgacha realizatsiya mexanizmlarini joriy etish: qarzdorga xabarnoma berish, mustaqil baholash, adolatli narx tamoyili va elektron auksion platformalaridan foydalanish orqali garov predmetini tezkor sotish.

Bankrotlik jarayonida ustuvorlik zanjirini aniq belgilash: garov predmetidan tushgan mablag'dan birlamchi qanoatlantirish mexanizmini kuchaytirish, DIP moliyalashtirishga cheklangan super-prioritet berish.

Mikro va KOB subyektlari uchun soddalashtirilgan garov tartibini joriy etish, "floating charge" (aylanma aktivlarga umumiy garov)ni tan olish.

Kross-border garovlar va kolliziya qoidalarini aniqlashtirish, xorijda ro'yxatdan o'tgan garovlarni tan olish tartibini soddalashtirish.

Ma'lumotlarni himoya qilish va iste'molchi huquqlarini mustahkamlash: shaffof xabardorlik, elektron xabarnomalar va mediatsiya imkoniyatlari.

Nazorat va auditorlar bilan hamkorlikni kuchaytirish: garov portfeli sifati bo'yicha masofaviy monitoring (CAMELS, ORAP ko'rsatkichlari bilan bog'langan) va "qizil bayroq" signalizatsiyasini joriy etish.

Ushbu chora-tadbirlar kredit bozorida tiklanish koeffitsientini oshirish, kreditlash sharoitlarini yaxshilash, foiz stavkalarini pasaytirish va Bazel III doirasidagi kapital yetariligi hamda risk og'irliklarini boshqarish jarayonini soddalashtiradi. Natijada, bank tizimining barqarorligi va moliyaviy vositachilikning samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Xulosa (Заключение/Conclusion)

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bank risklarini boshqarish tizimining samaradorligi iqtisodiy islohotlar sharoitida nafaqat moliyaviy

barqarorlik, balki iqtisodiy o'sishning ham asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiyotda bank tizimining barqaror ishlashi moliyaviy vositachilikni mustahkamlash, investitsiya oqimlarini barqarorlashtirish va milliy iqtisodiyotni global moliya bozorlariga integratsiyalash jarayonida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajribalar tahlili shuni tasdiqladiki, samarali risk-menejmentning asosiy omillari – bu nazorat organlari, audit kompaniyalari va tijorat banklari o'rtasidagi yaqin hamkorlik, shuningdek, statistik modellar, reyting tizimlari (CAMELS, ORAP, SCOR, SEER) va stress-testlar kabi zamonaviy baholash vositalarining kompleks qo'llanilishidir. Risk madaniyatini shakllantirish va xodimlarning riskka nisbatan ongli yondashuvini rivojlantirish esa tizimning ichki mustahkamligini oshiradi va muammolarni erta aniqlash imkoniyatini kengaytiradi.

Shuningdek, raqamlashtirish va IT-infratuzilmani modernizatsiya qilish orqali risklarni real vaqt rejimida kuzatish, "big data" va sun'iy intellekt asosida risklarni prognozlash imkoniyatlari bank tizimining moslashuvchanligini kuchaytiradi. Bu, o'z navbatida, tizimiy risklarning oldini olish, omonatchilar va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Kelgusida bank tizimining samarali ishlashi uchun bir qator ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish zarur. Avvalo, Bazel III va kelgusi Bazel IV kabi xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka to'liq integratsiya qilish hamda ularni amaliyotga samarali joriy etish muhimdir. Bu banklar faoliyatining global talablarga mosligini ta'minlaydi va transchegaraviy moliyaviy operatsiyalarni yengillashtiradi. Risk madaniyatini rivojlantirish va barcha darajadagi xodimlar uchun doimiy o'quv dasturlarini yo'lga qo'yish zarur. Bu xodimlarning riskka nisbatan ongli munosabatini shakllantirib, qaror qabul qilish jarayonini yanada puxta va barqaror qiladi.

Bank tizimining raqamli transformatsiyasini tezlashtirish va kiberxavfsizlik choralari kuchaytirish ham ustuvor yo'nalishlardan biridir. Bu nafaqat mijozlar ma'lumotlarini himoya qiladi, balki bank infratuzilmasini zamonaviy xavflardan himoya qilishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, stress-testlarni keng qo'llash va makroprudensial siyosat vositalarini takomillashtirish orqali tizimiy barqarorlikni oshirish lozim. Bu banklarning moliyaviy zarbalarga chidamliligini mustahkamlaydi va bozor beqarorligi davrida iqtisodiy tizimni qo'llab-quvvatlaydi.

Nihoyat, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, ma'lumot almashish va transchegaraviy risklarni boshqarish mexanizmlarini uyg'unlashtirish ham bank sektorining kelajakdagi rivoji uchun muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, bank risklarini boshqarishning takomillashgan tizimi nafaqat banklarning ichki barqarorligini oshiradi, balki butun moliya sektorining ishonchligini kuchaytiradi, iqtisodiy islohotlarning samaradorligini oshiradi va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. O'zbekiston Respublikasining "Kreditorlarning garov bilan ta'minlangan talablarini qanoatlantirish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" Qonuni, 22.04.2025 yildagi O'RQ-1060-son. <https://lex.uz/uz/docs/-7488160>
2. BIS. (2023). Evaluation of the impact and efficacy of the Basel III reforms. Bank for International Settlements. <https://www.bis.org/bcb/publ/d544.pdf>
3. Wang, R., & Ziegel, J. F. (2018). Scenario-based risk evaluation. arXiv. <https://arxiv.org/abs/1808.07339>
4. Basel Committee on Banking Supervision. (2021). Assessing the impact of Basel III: Evidence from macroeconomic models: literature review and simulations (Working Paper No. 38). Bank for International Settlements. <https://www.bis.org/bcb/publ/wp38.pdf>
5. Shevchenko, P. V. (2009). Implementing Loss Distribution Approach for Operational Risk. arXiv. <https://arxiv.org/abs/0904.1805>
6. BIS. (2023). Evaluation of the impact and efficacy of the Basel III reforms. Bank for International Settlements. <https://www.bis.org/bcb/publ/d544.pdf>
7. Bakhridinovna, T. N. (2021). Analyses and Emerging Technology.